

**MA'NAVİY BARQARORLIK VA BEQARORLIK INSON TABIIY INTELEKTINING
SINERGETIK XUSUSIYATI SIFATIDA****Mustafaev J.Sh. -***Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Samarqand kampusi dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlardan maqsad - yoshlarning mehmondo'stlik, fidoyiligi, qalb saxovati, bag'rikenglik va madaniyatini shakllantirishdir. Siyosiy strategiyaga ko'ra taraqqiyot va rivojlanish ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya qay yusinda berilishiga, xalqimiz ongiga milliy ruhdagi bag'rikenglik madaniyatini singdirishga qaratilgan.

Yurtimizda turli xalqlar, elatlar va millatlar, etnik birliklar vakillari farovon yashashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Arab, qoraqalpoq, qozoq, turkman, rus, tojik, va boshqa ko'p millatlar va va elatlar birgalikda, hamjihatlikda, bir-birlarining turli xil qadriyatlarini, an'analari, urf-odatlarini, marosimlariga o'zaro hurmat ko'rsatib farovon, osoyishta va tinch yashamoqdalar.

Fuqarolik, demokratik jamiyatda, Konstitutsiya va qonunlarda fuqarolarning ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyi, e'tiqodi, millati, tili va dinidan qat'iy nazar tengligi belgilab berilgan.

Respublika davlat ta'lim tashkilotlarida o'qish va o'qitish 7 ta tilda, gazeta va jurnallarni 10 tadan ortiq tillarda nashr etilishi OAVlardagi ko'rsatuvlarning 12 tadan ortiq tillarda (qirg'iz, o'zbek, tatar, rus, ozarbayjon, qoraqalpoq, uyg'ur, qozoq, turkman, tojik, ingliz va boshqa) olib borilishi diniy tolerantlik va millatlararo bag'rikenglik yuksak namunasi sifatida baholasak bo'ladi. Yurtimiz Oliy va o'rta maxsus ta'limi tizimi bo'g'inlarida 7 ta tilda (qoraqalpoq, tojik, qozoq, rus, ingliz, qirg'iz, o'zbek) ta'lim yuritilishi Markaziy Osiyoda geopolitik jihatdan eng murakkab hudud sanaladi.

O'zbekistonda yuqorida nomlari keltirilgan xalqlardan tashqari, 100 dan ortiq millatlar vakillari istiqomat qiladi. Barcha millatlar huquq va erkinliklardan foydalanish bilan birga burch va majburiyatlarni ham o'z zimmlariga oladilar.

O'zbekistonning milliy-madaniy jihatdan turli tumanligi yurtimizning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay shart-sharoitlarda yana biri. Polietnik davlatimiz tashqi va ichki siyosiy dasturlarini ko'zlagan bosh g'oyasi ham diniy bag'rikenglik millatlararo totuvlikni ta'minlashir. Mamlakatimizda o'ttiz yildan oshiq vaqtdan beri yuritilayotgan ochiq-pragmatik, tashqi ijtimoiy-siyosatdagi totuvlikni ta'minlash, etnik guruhlar va millatlar o'rtasida o'zaro hurmat, siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi omil va vositalar, milliy totuvlik xalqaro maydonda e'tirofqa etilmoqda. Yurtboshimiz "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" asarida - "Bugun mamlakatimizda bir yuz o'ttizdan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda" [1, 297], deb aytib o'tganlar.

O'zbekistonda milliy barqaror taraqqiyotning asosi hukumat e'tiborida bo'lganligini yuzdan ortiq milliy madaniy markazlarning faoliyatidan ham bilib olsa bo'ladi.

Jamiyat barqarorligi milliy va umuminsoniy merosga bog'liq bo'lib, milliy ma'naviy meros bag'rikenglik madaniyatini yuzaga keltiradi. Markaziy Osiyo manaviy merosida yaqqol namoyon bo'ladigan bag'rikenglik madaniyatini shakllanish ildizini moziydan izlaymiz.

Bizga tabiat in'om qilgan tashqi ko'rinishimiz va fiziologik strukturamiz o'zgarimas, genlarimiz ham barqaror xarakterli, o'z holatini saqlab turadigan yoki ajdodlarimizdan oladigan xujayralarimiz orqali o'tib keladigan irsiy informasiyalar barqarorlik hisoblanadi. Murakkab organizmga ega inson shaxsi uzluksiz ravishda tartibot va kaos dialektikasi va determinizmi ta'sirida hayot kechiradi.

Bir tomondan inson hayotida harakatchanlikning, ijodning, o'z-o'zini tashkillashtirishga intilishning yo'qolishi, qalb dangasaligi va ruhiy ma'naviy intilishdan to'xtab qolish, barqaror holat hisoblanadi. Doimiy harakat, ijodiy notinchlik, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirishga harakat qilish, turli muvaffaqiyatlarga intilish va ulardan lazzatlanish bu – beqarorlikdir. Bu ikki tushuncha ekzistensiyasi doim bir-birini taqozo qiladi. Ular doimiy tarzda bir-

biri bilan aloqadorlikda bo'ladir. Barqarorlik va beqarorlik tushunchalari, ularning sistema mavjudligiga ta'siri xususida ko'plab fikrlar, bir-birini rad etuvchi munosabatlar ham uchraydi. Misol uchun, qadimgi yunon falsafasida "barqarorlik bu - tartibotdir" [2, 73], deb ta'kidlangan.

Davrlar mobaynida sayqallanib kelgan milliy tajriba insonning barkamol bo'lishida, millat va xalqning tarixiy rivojida eng zarur vositalardan biridir. O'tmish, bugun va kelajak o'rtasidagi sinergetik va dealitik aloqadorlik hamda o'tmish xotirasi madaniy va ma'naviy taraqqiyot uchun muhim omillardan biridir. Inson tarixiy tajribasining maxsuli - milliylik bag'rikenglik madaniyatidir. Uning ijtimoiy mazmuni yoshlarda ma'naviy barkamollikka yetishishdagi bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish, yangicha dunyoqarashga dastlabki odimdir.

Yoshlarda ma'naviy yuksalish jarayonining barcha siyosiy, madaniy, mafkuraviy, huquqiy va axloqiy tasavvurlari ijtimoiy tizim va tuzumlarning ta'siri orqali shakllangan hamda rivojlangan. Azaldan o'zbeklarda bolalarni faqat ota-onagina emas, balki mahalla, maktab, oshno-og'aynilar, qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug'lar hamkorlikda tarbiyalab kelgan. Yoshlarning axloqiy qiyofasi shakllanishiga hamma davrda ham ijtimoiy atrof-muhitning ta'siri katta bo'lgan. Farzandlarni qo'ni-qo'shniga, ota-onasiga yordam berishga, halol mehnat qilishga bolaligidanoq o'rgatishganlar. O'zaro duch kelganda hol-ahvol so'rashish ham yuksak axloqiy fazilat sanalgan.

Har qanday muvaffaqiyatning asosi to'g'ri tanlangan maqsad va unga olib boradigan vositadir. Maqsadimiz yoshlarni bobolarimiz tomonidan bunyod etilgan ilmiy-ma'rifiy, ijtimoiy siyosiy va tabiiy-ilmiy merosining nafaqat oddiy istemolchisi, balki undan eksternal ma'naviy quvvat olib, buyuk ishlarini davom ettiruvchi, tafakkur tarzini yuksaltirishga qodir, boqimandalik kayfiyati tark eta oladigan darajaga erishishdan iboratdir. Ya'ni bu maqsad yoshlarimizning tafakkur tarzini o'zgartirish, unda jismoniy va ruhiy, zohiriy va botiniy quvvat garmoniyasiga erishgan holda sodir etishga undaydigan bebaho kuch-qudratga erishishga sazovor bo'lishdir.

Antik davr faylasuflaridan bo'lgan Empedoklning fikricha, "Oldindan bashorat qilish mumkin bo'lmagan narsalar bu – kaos, beqarorlik va tartibsizlikdir". Bu davrda beqarorlik tushunchasiga bir tomonlama, negativ tushunch sifatida qarashgan, uning mohiyati, ma'naviy borlig'i va jamiyat hayotiga sinergetik ta'siri noto'g'ri yondashuv evaziga anglab yetilmagan. Antik davrda, ba'zi falsafiy maktablar, masalan, stoiklar, kiniklar va sofistlar maktablari ta'limotlarida beqarorlik haqidagi qarashlar uchraydi. O'rta asrlarda bu tushunchalarga o'ziga xos yondashilgan. Masalan, Foma Akvinskiyning tadqiqotlarida "Tartibot – xudo tomonidan, tartibsizlik esa iblis tomonidan yaratilgan", deb qayd etilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy sohadagi islohotlar diqqatga sazovordir [7, 23]. Hech bir jamiyat yoki davlat ma'naviyat va bag'rikenglik madaniyatisiz yasholmaydi. Ularda o'z vatani, uning tarixi, buyuk ajdodlari qoldirgan meros bilan faxrlanishni yuqori darajaga ko'tarish o'ta muhimdir. Ma'naviy hayot oldiga qo'yiladigan talablar ham doimiy ravishda o'zgarib borishining sababi ma'naviyatning doimiy harakati, uzviy va izchil taraqqiyotidir. Ma'naviy-axloqiy tasavvurlar, bag'rikenglik ko'nikmalarni yoshlar ongiga singdirish va bugungi kun talablari asosida rivojlantirib borish an'anasi yurtimizda asrlar mobaynida yuzaga kelgan. Prezidentning 2017 yil 5 iyul "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi, 2018 yil 27 iyun "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida" kabi qaror va farmoni ushbu an'analarni huquqiy va qonuniy davom ettirish imkonini beradi. Zero, ushbu qaror va farmonlarning qabul qilinishi mamlakatimizda yoshlarimizning ijtimoiy faol qatlamga aylanishiga yordam beradi.

Beqarorlik insonda o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini qayta tarbiyalash, o'z-o'zini tanqid qilish jarayonida paydo bo'lib, motivatsiyalar insonni barqaror taraqqiyot va ma'naviy kamolotga eltadi.

Axborotlashgan XXI asrda tahdidlarning katta va kichigi bo'lmaydi. Ayni sharoitda o'smirlarni mafkuraviy tahdidlar va axborotlarni keskin "portlash"idan saqlab qolish, ularga so'nggi rusumdagi texnologiyalarni o'rgatish davr taqozosidir. Falsafiy-badiiy asarlarda sharqona axloq-odob qoidalarini mukammal darajada yoritishgan. Bular ichida "kishilarning qalbini yumshatadigan pand-nasihatlar" o'ziga xos o'rin tutadi.

Inson tabiatida muvozanatning buzilishi, bir holatda turg'un turmasligi, uning beqaror holatidan dalolat beradi. Shaxsning beqaror holatlarining kelib chiqishi - bu ehtiyojlarning o'zgaruvchan xarakterga egaligi, doimiy tarzda ushbu ehtiyojlarni qondirishga intilishi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining doimiy tarzda o'sib borishi sabab bo'ladi. Bundan tashqari, jamiyatdagi iqtisodiy ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy resurslar, insonning barcha ehtiyojlarini qondirib bo'lmazligiga sabab bo'ladi. Inson talablari, ehtiyojlari va imkoniyatlarining garmonik tarzda rivojlanmasligi ham insondagi beqarorlik holatlarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ba'zi faylasuflar beqarorlik holatini salbiy holat sifatida baholaydilar. Masalan, Ibn Sinoning fikricha, "Inson ruhiy ma'naviy olamining tubanlashuvi, tartibsizligi va beqarorligining sababi – nafs. Sof muhabbat (keng ma'nodagi) inson ma'naviy dunyosiga barqarorlik xislatini bag'ishlaydi" [7, 475], deb qayd etilgan. Ibn Sino barqarorlikning mohiyatini mo'tadillik tushunchasi orqali ochib beradi va barqarorlikning murakkab sistema sifatida mavjud bo'lgan, doimiy harakatda, o'zgarishda bo'lgan inson uchun naqadar muhim ekanligini aniq, ilmiy va tibbiy asoslar bilan tushuntirib beradi. Ibn Sino beqarorlikni inson ma'naviy-ruhiy holatining buzilish holati sifatida qaraydi. Nafsnii tiyish, inson qalbi va tanasida beqarorlik hamda tartibsizlik oldini oladi, turli tuban ishlarni qilishdan asraydi, deb hisoblaydi. Bugungi kun sinergetik yondashuv tamoyilidan kelib chiqib baholaydigan bo'lsak, Ibn Sino beqarorlik tushunchasiga bir yoqlama yondashganligini, beqarorlikning inson ma'naviy kamolotidagi o'rnini to'g'ri baholay olmaganligini ko'rib o'tamiz. Sababi shuki, Ibn Sinodagi beqarorlikda me'yor hodisasini hisobga olmagan bo'lishi mumkin. Me'yor insonning barcha fazilatlarini, faoliyati, hatti-harakatlarining bosh mezoni bo'lishini talab etadi. Me'yorning o'z doirasidan chetga chiqishi insonning ezgu va yomon fazilatlarida ham mohiyatini yo'qotib, salbiy ma'noni anglatishi, pirovardida xunuk oqibat keltirib chiqarishi sabab bo'ladi. Ushbu qoidani deyarli barcha mutafakkirlarning ijtimoiy axloqiy qarashlarida ko'rib o'tishimiz mumkin. Masalan, Alisher Navoiy insonning barcha xatti-harakatlari me'yor asosida tartibga solinishi lozimligini ta'kidlaydi. Hattoki, eng oliy insoniy fazilatlar bo'lmish kamtarlik, saxiylik ham me'yorida bo'lishi lozimligini aytib o'tgan. Me'yorning yo'qolishi ushbu fazilatlarining mazmunini yo'qolishiga olib keladi. Masalan, saxiylikning me'yoridan oshishi isrofgarchilikni, kamtarlikning me'yoridan oshishi insonning o'z qadr- qimmatini yo'qotishiga olib kelishini ta'kidlab o'tadi.

Me'yor tushunchasi inson ma'naviy borlig'ida barqarorlik va beqarorlik holatining muvozanatini tavsiflaydi. Bu holatlar o'zaro aloqadorlikda inson ma'naviy kamoloti, o'z-o'zini takomillashtiruvchi jarayonni tavsiflaydi. Me'yorning buzilishi bu ikki holat o'rtasidagi muvozanatni buzilishiga olib keladi. Beqarorlik holati me'yorning buzilishi, ketma-ketlik va tartibotni izdan chiqishiga, xaotik holatlarni, tartibsizlikni, tizim faoliyatidagi uzviylikni, inson ichki olamida axloqiy, diniy, ilmiy qarashlaridagi buzilishlarga sabab bo'luvchi holatidir. Umumiy holatda, inson ma'naviy borlig'ida barqarorlik va beqarorlik holatlarining me'yoriy darajada, Konfutsiy ta'biri bilan aytilganda, "oltin o'rta" ni qo'llash, teleologik nuqtai-nazardan maqsadga erishish yo'lida ratsional, garmonik tarzda faoliyat yuritish o'zini oqlaydi. Insonda stresslarni, ruhiy zo'riqlashlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlar - me'yoridan ortiq harakatchanlik, intellektual izlanishlar, ruhiy-ma'naviy beqarorlik ichki muvozanatsizlik kabilardir. Insoniyat tarixiy madaniyati taraqqiyoti oqibatida shakllangan yutuqlar barqaror hamda beqaror holatlar natijasidir. Gap shundaki, inson paydo bo'lgan davridan boshlab, bugungi kunga qadar, tinimsiz ravishda o'z hayotini yaxshilashga, o'ziga qulayroq hayot sharoitini ta'minlashga harakat qilib keladi. Bu harakatlari, yangilikka intilishi, uning ruhiy-ma'naviy harakatchanligidan, ruhiy-ma'naviy olami uyg'oqligidan, demakki, ruhiy-ma'naviy olami beqaror holatdaligidan dalolat beradi. Yuqorida aytib o'tganimizdek beqarorlik, inson ruhiy olamida cheksiz davom etmasligi lozim. Shuning uchun ham ma'lum nuqtaga erishgach, inson ma'naviy olamida barqarorlik holati boshlanadi. Shu tariqa inson ma'naviy olamida barqarorlik va beqarorlik dinamikasi, dialektikasi madaniyatni paydo qilgan. Madaniyat barqarorlik va beqarorlik mahsuli sifatida barcha elementlari ham insonga baxt-saodat olib kelavermaydi. Ba'zilar insonning barqaror taraqqiyotiga, farovon turmush kechirishiga xizmat qilsa, ba'zilar ijtimoiy beqarorliklarni keltirib chiqarishi turgan gap. "Barqarorlik va beqarorlik dialektikasi inson ma'naviy olamining garmoniyasini va dinamik rivojini

ta'minlaydi, ular o'rtasidagi aloqadorlik insonning ma'naviy yuksalishi uchun ichki harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajaradi [8, 115].

Barqarorlik kategoriyasi odatda muvozanat, takrorlanuvchanlik, murosa tushunchalari bilan birgalikda qo'llanadi. Bir tomondan, ijtimoiy munosabatlar jarayonida muvozanat, murosa insonlar bilan kelishish, konfliktlardan saqlanish imkoniyatini beradi. Kelishuvchanlik, murosa va konfliktlardan qochish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga, kelishuvchanlik va murosa inson ma'naviy borlig'ini bir maromda, sokin, muvozanatli va barqaror holatini ta'minlaydi. Ikkinchi tomondan esa kelishuvchanlik va murosa insonning yangilik va haqiqat uchun kurashish qobiliyatini susaytiradi. Mavjud nohaqliklar, adolatsizliklar bilan murosa qilish oxir oqibatda sistemada tartibotni izdan chiqarishi va xaosni keltirib chiqarishi mumkin. Bir tomonning manfaatlarini mutloqlashtirish esa beqarorlikni, oxir oqibatda tartibsizlikka olib keladi. Bu ikki holatda ular o'rtasidagi aloqadorlik va me'yorni, muvozanatni to'g'ri baholay olish muhimdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, birinchidan, barqarorlik umumiy tomonlarning muntazam uzviyligi, barqaror taraqqiyot tushunchasi esa tizimning doimiy o'sish dinamikasini anglatadi. Barqarorlik tushunchasi muvozanat, turg'unlik tushunchalari bilan bog'liqdir. Barqarorlik, tizimning ma'lum holatini ma'lum vaqt mobaynida o'zgarimasdan bir maromda saqlab qolishini anglatadi. Ikkinchidan, inson o'zining mavjud holatidan qoniqish hissi, o'zini o'rab turgan ijtimoiy sharoitga ko'nikish hissi, barqarorlikni keltirib chiqaradi. Bu holat insonni o'sishdan, yangi marralarni egallash va yangi yutuqlarga erishish imkoniyatidan bebahra qiladi. Uchinchidan, inson barqaror taraqqiyotga intiladi, barqarorlikka emas, deb aytish to'g'ri bo'ladi. Sababi, ma'naviy kamolotning ma'lum darajasiga erishilganlikni aks ettiradigan taraqqiyotning belgilarini va xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. To'rtinchidan, barqaror taraqqiyot nuqtasida har xil tashqi ta'sirlarning sistemaga ta'siri kamayadi, negaki ushbu darajaga erishish, sistemaning mustahkamligini, o'z pozitsiyasiga egaligini va tashqi ta'sirlarga sezuvchanlikning kamayganligini ko'rsatadi. Insonning barqaror taraqqiyotga ershish, uning kamolotidan, komillikka erishganligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. Т.: "Ўзбекистон", 2018. – Б. 297.
2. Зунде А.Я. Метафилософский аспект античной «онтологии» // *Античная философия: специфические черты и современное значение.* — Рига, 1988. - С. 73.
3. Қўшоқов Ш.С. Синергетика, вертуаллик ва ижод. // *Синергетика: ривожланиши ва истиқболлари.* – Наманган. НамДУ, 2010. – Б. 63.
4. Пригожин. И. Философия нестабильности. - Москва: Наука, 1991. - С. 46.
5. Князева Е.Н. Мыслить синергетически - значить мыслить диалектически. Актуальные вопросы диалектики. - Москва: Юрист, 2000. - С. 113.
6. Курдюмов С.П., Князева Е.Н. Основные принципы синергетического мировоззрения. - Москва: Юрист, 2004. - С. 83.
7. Қодирова З.Р., Шарипов А.Ж., Алимасов В.А., Каримова Э.Г., Мадаева Ш.О. Ёшлар ижтимоий фаоллиги ва бағрикенглигини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2006. – Б.23.
8. Князева Е.Н. Мыслить синергетически - значить мыслить диалектически. Актуальные вопросы диалектики. - Москва: Владос, 2000. - С. 115.
9. J.Mustafayev. Ma'naviy meros - sinergetik tadqiqot obyekti sifatida // falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand. -2024.
10. Тураев Б.О. Танланган асарлар. 1-том. -Тошкент: Наврўз, 2015. – 352 б.
11. Тураев Б.О. Танланган асарлар. 2-том. -Тошкент: Наврўз, 2015. – 368 б.
12. Mustafayev J.Sh. Tabiiy intellekt va shaxsiyat masalasi: psixofiziologik va sinergetik tahlil//, Tamaddun nuri / The light of civilization. 2025-yil, 10-son (73), Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal. ISSN 2181-8258 IF-9.347 DOI 10.69691
13. Mustafayev J.Sh. Progressive-ontogonic properties of artificial and natural intelligence// *Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences*, Vol. 3. 10, (2025), ISSN Online: 2961-0389, Website: <https://www.scientaljournal.com/index.php/SJEHSS/index>, Submitted: August 03, 2025/ Accepted October 08, 2025/ Published October 16, 2025. – P.40-46.

14. Mustafayev J.Sh. Artificial Intelligence And Social Life Determinism // Open Academia: Journal of Scholarly Research. Volume 3, Issue 10, October, 2025. ISSN (E): 2810-6377, Website: <https://academiaone.org/index.php/4>, -P. 11-16. \
15. Mustafayev J.Sh. Shaxs aql-idroki va sun'iy intellekt dialektikasi // BERDAQ nomidagi QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETINING AXBOROTNOMASI. ISSN 2010-9075 № 2 (69) HUKUC-2025.
16. Mustafayev J.Sh. Axborotlashgan jamiyatda davlat xizmatchisining ma'naviy-axloqiy fazilatlarining namoyon bo'lishi // «Инсон, тафаккур, социум ва коинот: тараққиёти, муаммолари ва истиқболи» мавзусидаги халқаро илмий-назарий анжуман мақолалари тўплами. Самарқанд, 2025 йил 12 март. -В. 273-278.
17. Mustafayev J.Sh. Yoshlar axloqiy inqirozini oldini olishda axborot xavfsizligini shakllantirish // «Инсон, тафаккур, социум ва коинот: тараққиёти, муаммолари ва истиқболи» мавзусидаги халқаро илмий-назарий анжуман мақолалари тўплами. Самарқанд, 2025 йил 12 март. -В. 1386-1391.

REZYUME:

Mazkur maqolada shaxs hayotida etnik guruhlar va millatlar o'rtasida ma'naviy aloqalar kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: taraqqiyot va rivojlanish, millatlararo bag'rikenglik, murakkab organizm, sinergetika va dealiktika, attraktorlar va fraktallar.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматриваются духовные связи между этническими группами и народами в жизни отдельно взятого человека.

Ключевые слова: прогресс и развитие, межэтническая толерантность, сложный организм, синергетика и диалектика, аттракторы и фракталы.

RESUME:

This article discusses issues such as spiritual connections between ethnic groups and nations in the life of an individual.

Keywords: progress and development, interethnic tolerance, complex organism, synergetic and dialectic, attractors and fractals.